

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARIDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISH**

Qo‘ziyeva Mashxuraxon

*Farg‘ona viloyati Furqat tumani 2-umumta ’lim maktabi
informatika fani o ‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Interfaol usullar bo‘yicha o‘qitish tashkil etish jarayonida o‘qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vosita ekanligi, Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilayotganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, samaradorlik, interfaol metod, tajriba, rivojlantirish, pedagogik mahorat, tafakkur, imkoniyat.

Bugungi kunda o‘quvchining mustaqil o‘zlashtirishi, bilim olishi va idrok etishi uchun sharoit yaratmasdan turib, ko‘zlangan maqsadga erishish, o‘qitish muammolarini hal etish mumkin emas. Zamonaviy o‘qituvchining vazifasi maktab o‘quvchilariga bilim berish emas, balki motivatsiya yaratish va o‘zini o‘zi tarbiyalash uchun ko‘nikmalar to‘plamini shakllantirishdir. Albatta, o‘qituvchi yordamisiz o‘quvchiga hech qanday mahorat kelmaydi. Bu to‘quvchining shaxsiy shakllanishiga va uning rivojlanishiga olib keladi. Ta’limning interfaol usullari o‘qituvchiga o‘quvchilarni dars bilan qiziqtirishga, ularni faol ishtirok etishga, natijalarga erishishga va jamoaviy ishlashga undashga yordam beradi.

Interfaol o‘qitish - muloqotli o‘qitish bo‘lib, jarayonning borishida o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘zaro tasir amalga oshiriladi. Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Interfaol metodlardan foydalilaniladigan o‘quv jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamarlab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruqli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihibalar, rolli o‘yinlar, ijodiy ishlar qo’llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Interfaol o‘qitish tashkilotchilari uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlar jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib etishi;
- boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;
- o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.



Interfaol usullar bo'yicha o'qitish tashkil etish jarayonida o'qituvchining bergen topshiriqlari mazmuni o'quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo'lib, o'quvchilarни fikr yuritish, o'ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi muhimdir. Ushbu masalaning hal etilishi ko'p jihatdan o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashga bog'liq.

Interfaol so'zi inglizcha "Interakt" so'ziga mos kelib, "Inter – o'zaro", "akt – ish ko'rmoq, ishlamoq" degan ma'nolarni anglatadi.

Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiyligi, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o'quv jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamlab ko'rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar, ijodiy ishlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darjasini o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslarini hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.



Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faoliyklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Bahodirovna J. Z. INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C. 540-542.
2. Matyakubov A. S., Boymurodov S. B. INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 705-709.
3. Islomovna S. S. Informatika Va Axborot Texnologiyalari Fanini O'qitishda Kriativ Yondashuv //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 594-597.